XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-fevral VII-5-13-8-118-K/25 Uzun tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlarni belgilash to‘g‘risida

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Uzun tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i Sh.Qosimovning hisoboti tinglanib, 2025-yil 22-yanvardagi 18-00644-son xatini inobatga olib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Uzun tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i Sh.Qosimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xasanov)ga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Kamolov)zimmasiga yuklatilsin.

3.Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



SAFAROVA DILOROM SHAYDILOVNA

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-13-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(Qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Uzun tumani	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2025-yil 14-fevraldagi
VII-5-13-8-118-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar*

ming so'mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Uzun tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2

* Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat'iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli